

ISPAN TILIDA NOVERBAL ALOQA VOSITALARINING SOTSIOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI.

Dushayeva Umida Yusufvna,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Ispan tili amaliy fanlar
kafedrası f.f.f.d (PhD) dotsent.vb

Bo'rixonova Dilshodaxon Vali qizi

Ispan tili amaliy fanlar kafedrası FISP 2304-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ispan tilida noverbal aloqa vositalarining sotsiolingvistik xususiyatlari hamda ularni til o'rganish jarayonida qo'llash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Noverbal muloqot vositalari — imo-ishoralar, mimika, tana tili, ko'z bilan aloqa kabi elementlar — tilshunoslik va madaniyatshunoslikda muhim o'rin tutadi. Maqolada hududiy, jinsiy va ijtimoiy farqlarning muloqot uslublariga ta'siri, shuningdek, bu bilimlarning ispan tilini o'rganuvchilar uchun ahamiyati ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Maqolada til o'rganishda madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishda noverbal belgilarni chuqur o'rganish zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: noverbal aloqa, sotsiolingvistika, madaniyatlararo muloqot, jinsiy tafovut, hududiy farqlar.

SOCIOLINGUISTIC CHARACTERISTICS OF NONVERBAL COMMUNICATION IN SPANISH.

Abstract: This article analyzes the sociolinguistic features of nonverbal communication in Spanish and the possibilities of their use in the language learning process. Nonverbal communication tools — such elements as gestures, facial expressions, body language, eye contact — play an important role in linguistics and cultural studies. The article discusses the impact of regional, gender, and social

differences on communication styles, as well as the importance of this knowledge for Spanish language learners, based on scientific sources. The article justifies the need for in-depth study of nonverbal signs in the formation of intercultural competence in language learning.

Keywords: nonverbal communication, sociolinguistics, intercultural communication, gender difference, regional differences.

Kirish. Hozirgi globallashuv davrida xorijiy tillarni o'rganishda faqat so'z boyligini egallash kifoya emas. Har bir til o'ziga xos madaniyat, muloqot odobi va sotsiolingvistik xususiyatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Xususan, ispan tilida noverbal aloqa vositalari – ya'ni imo-ishoralar, yuz ifodalari, tana harakati va ko'z bilan aloqa kabi vositalar muloqotda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada ispan tilidagi noverbal aloqa vositalarining sotsiolingvistik xususiyatlari yoritiladi, ularning ijtimoiy va madaniy kontekstdagi farqlari tahlil qilinadi hamda bu vositalarning muloqotdagi o'rnini tahlil qilinadi. Til o'rganish jarayoni so'z va grammatik qurilishlarni o'zlashtirishdan tashqari, madaniy kontekstni, xususan noverbal (og'zaki bo'lmagan) aloqa vositalarini tushunishni ham talab etadi. Ispan tili dunyo bo'yicha turli mintaqalarda so'zlashiladi va bu mintaqalardagi madaniyatlar, ijtimoiy qatlamlar, jinsiy tafovutlar va boshqa sotsiolingvistik omillar noverbal muloqot vositalarining turlicha namoyon bo'lishiga olib keladi. Til o'rganuvchilar uchun bu farqlarni anglash samarali va madaniyatga mos muloqotni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Asosiy qism. Sotsiolingvistika (lot. *societas* — jamiyat va *lingvistika*) — tilshunoslik, sotsiologiya (jamiyatshunoslik), ijtimoiy psixologiya va etnografiya fanlari tutashmasida rivojlanuvchi va tilning ijtimoiy tabiati, uning ijtimoiy vazifalari, tilga ta'sir ko'rsatish mexanizmi hamda tilning jamiyat hayotida tutgan o'rnini bilan bog'liq ko'plab muammolar majmuini o'rganuvchi ilmiy nazariy soha hisoblanadi.[1] U shaxsning jinsi, yoshi, ijtimoiy mavqei, yashash joyi, madaniyati va boshqa omillarning til ishlatishga, jumladan noverbal vositalarga ta'sirini o'rganadi. Noverbal aloqa vositalari – imo-ishoralar, tana harakatlari, mimika, ko'z bilan aloqa, tana holati

va ovoz ohangi kabi elementlar orqali ma'no uzatish imkonini beradi. Bu vositalar har doim ham bir xil tarzda qabul qilinmaydi; ularning talqini jamiyatdagi madaniyatga bog'liq. "Sotsiolingvistika" terminini fanga birinchi bo'lib 1952-yilda amerikaliksotsiolog olim G.Karri kiritdi. Sotsiolingvistikaning shakllanishida I.A.Boduen de Kurtenening ham tadqiqotlari muhim o'rin tutgani haqida keltirilgan manbalar uchraydi. I.A Boduen de Kurtene: "Til faqat kishilar jamiyatida mavjud ekan, u holda uning ruhiy tomonidan tashqari, ijtimoiy tomoniga ham har doim e'tibor qaratishimiz kerak. Nafaqat, individual psixologiya, balki sotsiologiya ham tilshunoslikning asosi bo'lib xizmat qilishi lozim", - deb yozgan.[2]

Jumladan, aynan jamiyatning ilmiy asoslangan siyosatiga ehtiyoj borligi va tilning tashqi tuzilishidan ko'ra ichki tuzilishini o'rganishga bo'lgan qiziqishlar ko'pligi sabab XX asrning 30- yillarida strukturalizm (lotincha.structure - tuzilish, joylashish, tartib) tilni asosan bir tomonlama o'rganishni ya'ni shakl va ma'no birligi jihatidan emas, balki, faqat shakl jihatidan o'rganishga e'tibor berildi. Biroq bu natija bermadi, ya'ni bu oqim inqirozga uchradi. So'ngra tilning rivojlanib, boyib borishi, uzoq vaqtgacha yashab qolishi jamiyat bilan uzviy aloqada ekanligi aniqlandi. Haqiqatan ham, agar jamiyat bo'lmasa, ya'ni insonlar birgalikda o'zaro muloqot jarayonida bir tildan foydalanmas ekan, til o'z-o'zidan yo'qolib ketadi. Shu bilan bir qatorda insonlar o'zaro aloqa-aralashuvga kirishmas, hech biri nutq so'zlamas, ehtiyoji bo'lib turib muloqot qilmas ekan bunday jamoani jamiyat deb bo'lmaydi. Jamiyat rivojlanishi, o'zgarishlar olib borishi uchun insonlar o'zaro fikr almashishi, talab va takliflar bildirishi, o'ylagan g'oyalarini insonlarga tushuntira olishi kerak. Til tizimida "sotsiolingvistik tahlil" degan tushuncha bo'lib, unda asosan tilning jamiyatda qanday faoliyat ko'rsatishi va qanday vositalarni bajarishda ishtirok etadi. Bu tahlil tillarning bir-biriga o'xshamasligi, tubdan farq qilishini namoyon qilib beradi. "Sotsiolingvistika ma'lum bir sharoitda ma'lum bir axborotni nutq birliklari vositasida tinglovchiga yetkazish, bu nutq parchasida so'zlovchi belgi-xususiyatlarining in'ikosi, uning tinglovchiga ta'siri masalalarini o'rganadi va o'rgatadi".[3] "Sotsiolingvistika empirik fandir, chunki u kundalik hayotda ko'rish mumkin bo'lgan faktlarga asoslanadi.

Alomatlarni to'plash va shakllantirishda bu nazariy fan deb ham aytiladi. Sotsiolingvistika insonning turli vaziyatlarda til qoidalaridan to'g'ri foydalanish qobiliyatini tushuntirishga harakat qiladi.” [4]. Rus manbalaridan birida “sotsiolingvistika inson suhbatlashayotgan vaqtda tilning vazifalarini aniqlash bilan shug'ullanadi” deb aytib o'tishgan.

Amerikalik olim Uilyam Labov sotsiolingvistikaning asoschilaridan biri hisoblanadi. U til o'zgarishini ijtimoiy guruhlar va sinflar o'rtasidagi farqlarga bog'laydi. Labovning fikricha, til oddiygina til qoidalari majmui emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanishlarni ifodalovchi vositadir. U o'z tadqiqotlarida ayniqsa shahar dialektlaridagi farqlarni tahlil qilgan va tilning ijtimoiy sinf, yosh, jins kabi omillar bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatgan. [5]

Dell Hymes esa tilni muloqot vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy kontekstda ishlatiladigan kommunikativ kompetensiya sifatida ko'radi. U tilni faqat grammatik jihatdan o'rganish yetarli emasligini, balki til qanday vaziyatda, kim bilan, qanday maqsadda ishlatilishini tushunish zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, Hymes tilni o'rganish va tahlil qilishda SPEAKING modelini taklif qilgan bo'lib, unda tilning ijtimoiy vazifalari va konteksti batafsil o'rganiladi.[6]

Buyuk Britaniyalik olim Piter Tradgill esa dialektologiya va sotsiolingvistikaning ahamiyatini birlashtirib, til o'zgarishlarini va dialektlarning ijtimoiy xususiyatlarini o'rganadi. Uning fikricha, til ijtimoiy guruhlarini belgilovchi muhim belgi bo'lib, har bir dialekt orqasida ijtimoiy xulq va guruh a'ziligini anglash yotadi. [7]

Suzanne Romaine esa tarixiy sotsiolingvistika va ikki tillilik sohasida yetakchi mutaxassislardan biridir. U ijtimoiy o'zgarishlar til o'zgarishiga sababchi bo'lishini ta'kidlab, til tarixini va uning jamiyat bilan bog'liqligini chuqur tahlil qiladi.[8]

Noverbal aloqa vositalari – bu so'zlardan foydalanmasdan amalga oshiriladigan muloqot vositalaridir. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Imo-ishoralar (gestos): qo'l harakatlari orqali ifoda berish.

Yuz ifodalari (expresiones faciales): his-tuyg'ularni ko'rsatish uchun yuz mushaklarining harakati.

Ko'z bilan aloqa (contacto visual): diqqatni jamlash yoki hurmat ifodasi sifatida ko'zga qarash.

Tana tili (lenguaje corporal): gavda, holat, harakatlar orqali muloqot qilish.

Bu vositalar muloqot mazmunini to'ldiradi, ba'zida esa so'zlardan ko'ra ko'proq axborot yetkazadi. Noverbal aloqa vositalari insonlar o'rtasidagi muloqotni so'zsiz amalga oshirish imkonini beruvchi belgilar tizimidir. Ular orqali insonlar his-tuyg'ularini, niyatlarini, ijtimoiy munosabatlarini ifodalaydi. A. Mehrabian (1972) ta'kidlashicha noverbal aloqa xabarning 93 foizigacha qismini tashkil etishini aniqlagan: 55% tana tili, 38% ovoz ohangi va faqat 7% og'zaki so'zlar orqali uzatiladi. Bu esa noverbal belgilarni sotsiolingvistik tahlil qilish zaruratini ko'rsatadi.[9]

Og'zaki bo'lmagan muloqot tili ispan tilida o'ziga xos jihatga ega. Ispan tilida muloqot qiluvchilar, ayniqsa lotinamerikaliklar va ispanlar, noverbal aloqa vositalaridan faol foydalanadilar. Misol uchun ekspressivlik: ispan tilida so'zlashuvchi insonlar ko'pincha hissiyotlarini ochiq va kuchli ifoda etadilar. Ularning yuz ifodalari, ovoz ohangi va tana harakati boshqa madaniyatlarga nisbatan ancha faol bo'ladi. Yana bir turi jismoniy yaqinlik: muloqot paytida suhbatdoshlar orasidagi masofa qisqa bo'lishi odatiy hol sanaladi. Bu yaqinlik madaniy yaqinlik va iliqlik belgisi sifatida qaraladi va albatta imo-ishoralar tizimi: ba'zi imo-ishoralar ispan madaniyatida o'ziga xos ma'noga ega. Masalan, "pulgar hacia arriba" (bosh barmoqni yuqoriga ko'tarish) ijobiy ma'no bildiradi, biroq boshqa kontekstda mazax sifatida ham qabul qilinishi mumkin.

Noverbal muloqot vositalarining ishlatilishi shaxsning ijtimoiy holati, yoshi, jinsi, millati, mintaqasi, madaniyati va hatto ta'lim darajasi bilan chambarchas bog'liq. William Labov sotsiolingvistik o'zgaruvchanlikni ijtimoiy tabaqalar bilan bog'lagan. Uning metodologiyasini noverbal aloqa vositalariga tatbiq etgan tadqiqotchilar

(masalan, Deborah Tannen, 1990) erkak va ayollar muloqotida noverbal vositalarning turlicha ishlatilishini ta'kidlaydi: [10] ayollar ko'proq ko'z bilan aloqa va yuz ifodalariga suyanadi, erkaklar esa kengroq tana harakati va harakatsiz holatni afzal ko'radi. Hududiy farqlar ham muhim omil hisoblanadi. Masalan, M. Argyle (1988) Lotin Amerikasi va Ispaniya janubida ko'proq imo-ishora va jismoniy yaqinlik kuzatilishini aniqlagan [11]. Madaniyatlararo tadqiqotlar (masalan, Geert Hofstede, 1980) esa individualizm va kollektivizm darajasi noverbal muloqot uslubiga ta'sir qilishini ko'rsatadi [12].

Ispan tilida so'zlashuvchi hududlar o'rtasida noverbal aloqa vositalarining qo'llanilishi sezilarli darajada farqlanadi. Ispaniyaning shimoli (masalan, Galisiya, Basklar mintaqasi) va janubi (Andalusiya) o'rtasida muloqotda ishlatiladigan tana tili, ko'z bilan aloqa va mimika ancha farqlidir. Shimolda odamlar ehtiyotkor va rasmiy bo'lishga moyil bo'lsa, janubda ifoda erkinroq va hissiyotliroqdir. Lotin Amerikasi davlatlarida ham bu farqlar aniq ko'rinadi. Meksikaliklar muloqotda muloyim, nazokatli harakatlarga tayanadilar, argentinaliklar esa ancha ehtirosli va jismoniy yaqinlikni tanlaydilar. F. Poyatos (1994) ushbu hududiy tafovutlar madaniy qadriyatlar va tarixiy rivojlanish bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi [13].

Shaxsning ijtimoiy mavqei ham uning muloqotdagi noverbal ifodalarini belgilaydi. Yuqori tabaqaga mansub kishilar rasmiy, nazorat qilingan imo-ishoralardan foydalanadi. Ular tana harakatlarida ehtiyotkorlikni, pauzalar va cheklangan mimikani afzal ko'radilar. Masalan, diplomatlar, olimlar yoki yuqori lavozimdagi shaxslar noverbal belgilarni aniq va muvozanatli ishlatishga harakat qiladilar. Quyi ijtimoiy qatlamga mansub kishilar esa odatda ko'proq tabiiy, ochiq va hissiy ifodani namoyon etadilar. Bu holat Pierre Bourdieu tomonidan ishlab chiqilgan "habitus" tushunchasi orqali izohlanadi, ya'ni shaxslar o'z ijtimoiy guruhiga xos kommunikativ uslublarni o'zlashtiradilar. [14]

Erkaklar va ayollar o'rtasidagi noverbal aloqa vositalarida ham farqlar mavjud. Ayollar ko'proq ko'z bilan aloqa, yumshoq mimika, tasdiqlovchi bosh harakatlari va

jilmayish kabi belgilar orqali suhbatni yuritadilar. Ular odatda suhbatdoshni tushunishga va emotsional yondashishga intiladilar. Erkaklar esa odatda tananing barqaror holati, ba'zan keng harakatlar yoki sust mimikadan foydalanib, kuch va ishonchni aks ettiruvchi tarzda muloqot yuritadilar. Deborah Tannen (1990) bu tafovutlarni madaniy va ijtimoiy stereotiplar orqali izohlaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, ispan tilida noverbal aloqa vositalarining sotsiolingvistik xususiyatlarini o'rganish zamonaviy til o'rganish jarayonining ajralmas va muhim jihatidir. Til bu nafaqat fonetik, grammatik va leksik tizim, balki madaniyat va jamiyat bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab kommunikativ hodisadir. Ayniqsa, ispan tilida so'zlashuvchi jamiyatlarda noverbal aloqa – imo-ishoralar, yuz ifodalari, ko'z bilan aloqa, tana tili va jismoniy yaqinlik – suhbat mazmunini to'ldirish, kuchaytirish va ba'zan hatto o'rnini bosish vositasi sifatida muhim o'rin tutadi. Sotsiolingvistik yondashuv orqali biz noverbal aloqa vositalarining jamiyatdagi yosh, jins, ijtimoiy mavqe, madaniyat va mintaqaviy tafovutlarga bog'liq tarzda qanday o'zgarishini kuzatamiz. Misol uchun, Ispaniyaning shimoliy hududlari va janubiy hududlari orasida tana harakatlari va hissiy ifoda darajasi keskin farqlanadi. Xuddi shunday, Meksika bilan Argentina o'rtasida ham muloqotdagi jismoniy yaqinlik va ekspressivlik darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Bu farqlar F. Poyatos, Pierre Bourdieu, Deborah Tannen kabi olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan bo'lib, ular madaniyat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni yoritishda muhim nazariy asoslar yaratganlar. Shuningdek, jinsiy tafovutlar ham noverbal aloqa vositalariga ta'sir ko'rsatadi. Ayollar odatda ko'proq mimika va ko'z bilan aloqa vositalaridan foydalanadilar, bu ularning suhbatdoshga bo'lgan e'tiborini va emotsional yondashuvini namoyon etadi. Erkaklar esa tana tili orqali kuch, ishonch yoki rasmiylik kabi ijtimoiy xususiyatlarni ifodalashga intiladilar. Ushbu tafovutlarni tushunish, til o'rganuvchiga o'zini kontekstga mos tutishda va madaniy xatolardan saqlanishda katta yordam beradi. Til o'rganishda noverbal belgilarni to'g'ri talqin qilish va kontekstga mos holda ishlatish, suhbatdosh bilan samarali va madaniy jihatdan sezgir muloqot qurish imkonini beradi. Bu esa til o'rganuvchining til

kompetensiyasini chuqurlashtiribgina qolmay, balki uning madaniyatlararo kommunikativ salohiyatini ham rivojlantiradi. Zero, til bu – muloqot vositasi bo‘lishi bilan birga, jamiyat a‘zolari o‘rtasida madaniy tafakkur va qadriyatlar almashinuvi vositasidir. Umuman olganda, ispan tilini o‘rganayotgan shaxs uchun noverbal aloqa vositalarini sotsiolingvistik kontekstda o‘rganish, til o‘zlashtirishda chuqurroq tushuncha hosil qilish, kommunikativ mahoratni oshirish va ijtimoiy jihatdan moslashuvchan muloqot qurish imkonini beradi. Shunday ekan, ushbu vositalarni o‘rgatish va o‘zlashtirish til ta’limi jarayonida alohida o‘rin egallashi zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005).
2. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sotsiolingvistika>
3. <https://zenodo.org/records/10035789>
4. . <https://www.semanticscholar.org/paper/Macro-Sociolinguistics%3A-InsightLanguage-Sangia/0d0f7f475d2047c71780a0d2940b74a33b635e41>
5. Labov, William. The Social Stratification of English in New York City. Washington, D.C.: Center for Applied Linguistics, 1966.
6. Hymes, Dell. Foundations in Sociolinguistics: An Ethnographic Approach. Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1974
7. Trudgill, Peter. Sociolinguistics: An Introduction to Language and Society. London: Penguin Books, 1974.
8. Romaine, Suzanne. Language in Society: An Introduction to Sociolinguistics. Oxford: Oxford University Press, 2000.
9. Mehrabian A. Silent Messages: Implicit Communication of Emotions and Attitudes. — Belmont (CA): Wadsworth, 1971.
10. Tannen, Deborah. You Just Don’t Understand: Women and Men in Conversation. Ballantine Books, 1990.

11. Argyle M. Bodily Communication. – London: Methuen, 1975.
12. Hofstede G. Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions, and Organizations Across Nations. – Thousand Oaks (CA): Sage Publications, 2001.
13. Poyatos F. Cross-Cultural Perspectives in Nonverbal Communication. — Göttingen: Hogrefe & Huber Publishers, 1994.
14. Bourdieu P. Language and Symbolic Power. — Cambridge: Polity Press, 1991.